

**MILLIY OPERA SARI ILK QADAM: “BO‘RON” FENOMENI***Ismoilova Fotima Izzat qizi**Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi ilmiy hodimi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada birinchi o‘zbek operasi – “Bo‘ron” operasining yaratilish tarixi, uning o‘zbek professional musiqa san’ati taraqqiyotidagi o‘rni hamda Muxtor Ashrafiy va Sergey Vasilenko hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, operaning sahnalashtirilishi, ijodiy jarayonlari va o‘zbek milliy opera maktabining shakllanishidagi roli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Bo‘ron” operasi, Muxtor Ashrafiy, Sergey Vasilenko, o‘zbek operasi, milliy musiqa, opera san’ati, o‘zbek teatr san’ati, vokal maktabi, opera dramaturgiyasi, Jizzax qo‘zg‘oloni.

2025-yil o‘zbek operasining dunyoga kelganiga 86 yil to‘ldi. 1939-yil 11-iyunda O‘zbekiston musiqali teatri o‘z ijod yo‘lida yangi bosqichga qadam qo‘ydi: milliy opera janrining rivojlanishiga asos solindi. Birinchi o‘zbek operasi “Bo‘ron”ning ijodkorlari o‘sha vaqtga kelib keng tanilishga ulgurgan 27 yashar dirijyor va kompozitor Muxtor Ashrafiy hamda taniqli rus san’atkori S.N.Vasilenko bo‘lgandilar. Mazkur opera nafaqat yangi musiqiy janrning shakllanishi, balki o‘zbek professional musiqa madaniyatining tarixiy taraqqiyotida yangi davrni boshlab bergan muhim badiiy hodisa sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekistonda milliy operaning yaratilishi 30-yillarda birinchi darajali ahamiyatga molik ishga aylangandi. 1936-yil may oyida bo‘lib o‘tgan Birinchi respublika musiqa konfrensiyasida milliy operaning yaratilishi muammosi ushbu davrning bosh vazifasi sifatida olg‘a surildi. Unda so‘zga chiqqan kishilar o‘zbek musiqasida opera yaratish uchun shart-sharoit yaratilganligini ta’kidladilar. V.A.Uspenskiyning hisobotida aytilganidek, “Farxod va Shirin” dramasida musiqa materialining uyg‘unlashtirilishi va orkestrda ijro etishga moslashtirilishi milliy o‘zbek operasi rivojlanishidagi birinchi bosqich bo‘lgan edi. Moskvada 1937-yilda bo‘lib o‘tgan dekadadan so‘ng opera yaratilish xususidagi masala, ayniqsa, keskin bo‘lib qoldi. Ana shu ma’suliyatli topshiriq Muxtor Ashrafiy zimmasiga yuklandi.

Yosh kompozitorning opera janriga dastlabki murojaati 1934-1935-yillarga borib taqaladi. Uning Abdurauf Fitrat syujeti asosida yarata boshlagan “To‘lqin” operasi tugallanmay qolgandi, chunki Fitrat nohaq repressiya qilingan edi. Ushbu operaning 1-pardasiga oid saqlanib qolgan musiqiy material yosh kompozitorning yetarlicha professional sahnaga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Keyinchalik “To‘lqin” operasi lavhalari “Bo‘ron” operasiga kiritildi.

Milliy operani yaratish vazifasining murakkabligi, uni yosh kompozitorning bir o‘zi hal eta



olmasligi tufayli, respublika hukumati yordam ko'rsatishni so'rab, Moskva konservatoriyasida M.Ashrafiyga ustozlik qilgan S.N.Vasilenkoga murojaat qildi. 1938-yilning may oyida, – deb hikoya qilgan edi S.N.Vasilenko, – men O'zbekiston hukumatidan “Bo‘ron” operasini yozish xususida taklifnoma oldim. Menda ishga qanday kirishaman degan xavfsirash kuchli edi: o‘zbek tilini, o‘zbek folklorini bilmasam... nihoyat, do‘stim va sevimli shogirdim Muxtor Ashrafiy menga sherik bo‘ldi: biz birgalikda ishlay boshladik...Ana shu operani yaratish davri men uchun shodiyonalar davri bo‘ldi, meni o‘ziga jalb etib olgan bayram, birgalikda asar yaratish bayrami bo‘ldi.¹”

Ashrafiy va Vasilenko o‘rtasidagi ijodiy munosabatlar M.I.Chulaki xotiralarida aniq va chuqur tavsiflangan. “Dastlab bu munosabatlar Markaziy Osiyoning barcha respublikalariga tanish, folklor materiallarini yetkazib beruvchi va kelajakdagi asarning ohangdor asosini yaratgan yosh mahalliy musiqachining musiqiy xomashyoni uyg‘unlashtirish va orkestrga taklif etilgan taniqli usta bilan hamkorligi doirasida rivojlandi. Ammo Ashrafiyni ijodiy mehnatning bunday an’anaviy taqsimoti qanoatlantira olmasdi; u o‘zi ham yetarlicha ma’lumotli musiqachi, amaliy dirijyor, Yevropa professional san’atining ko‘p “sir-sinoatlarini” o‘rgangan. Vasilenko bilan ishlashda u eng yuqori mahorat maktabidan o‘tdi va asta-sekin ikkala ham muallifning munosabatlari tobora o‘sha teng xususiyatga ega bo‘ldi, bunda ularning har biri o‘z ishini mustaqil ravishda to‘liq texnologik hajmda va kerakli mahorat darajasida bajardilar. Ashrafiy Vasilenko bilan birgalikda birinchi yirik asar bo‘lmish opera janrida ijodini amalga oshirgani bejiz emas, – Axir, shuni unutmashlik kerakki, o‘sha paytda Ashrafiy allaqachon o‘n yillik tajribaga ega bo‘lgan opera dirijyori edi va shuning uchun u ushbu janr qonunlarini yaxshi bilgan, taxmin qilish kerakki, Vasilenkoning o‘zi ham nafaqat shogirdi bilan keng bilim almashish, balki birgalikda ishlash jarayonida u bilan muloqot qilishdan ko‘p narsalarni o‘rganish mumkinligiga tez orada ishonch hosil qilgan.²

Darhaqiqat, Muxtor Ashrafiy o‘sha davrga kelib allaqachon katta sahna tajribasiga ega bo‘lgan opera dirijyori edi. Shu sababli Vasilenko bilan olib borilgan hamkorlik oddiy “ustoz-shogird” munosabatlaridan chiqib, ikki professional ijodkorning teng hamkorligiga aylandi. Aynan mana shu ijodiy yaqinlik “Bo‘ron” operasining badiiy yaxlitligi va musiqiy mukammalligini ta’minlagan.

S.N.Vasilenkoning saqlanib qolgan xatlariga qaraganda, kompozitorlar bir joyda turib ishlashmagan: M.Ashrafiy Toshkentda, S.N.Vasilenko Moskvada bo‘lgan. M.Ashrafiy o‘zi tanlagan yoki ijod qilgan materialini muntazam ravishda Moskvaga olib kelib turgan yoki yuborgan. Vasilenko o‘zining shogirdi bilan, albatta, maslahatlashib turgan, musiqa va librettodagi kamchiliklarni ko‘rsatgan, asar ijod qilinishida yuzaga kelgan qiyinchiliklardan, ish materialidan doimiy tarzda xabardor bo‘lib turgan. Operaning dramatik voqealarga to‘liq

¹ Butunrossiya teatr jamiyatida S. N. Vasilenko va M. Ashrafiyning “Bo‘ron” va “Sirdaryo” operalari muhokamasi stenogrammasi. 1940-yil 26-may, 16-bet. Muxtor Ashrafiy muzeyi, KP. 7503. INV. 666.

² Чулаки М. И. Воспоминания о М. Ашрафи. Мухтор Ashrafiy muzeyi, KP. 8878. INV. 4820.
www.innovativepublication.uz



yakunlovchi pardasi yaratilishi, ayniqsa, qiyin kechgan.

Vasilenko o'z xatlaridan birida shunday deb yozadi: 4-pardani (keyinchalik operaga beshinchi parda qo'shilgan) ijod ijod qilishim to'xtab qoldi. Eng asosiysi, u qisqa, avvalgi pardalarga qaraganda juda qisqa. Jo'raning paydo bo'lishi oldidan jo'r otaning muxtasar ariozosi kiritilishini taklif qilaman. Bu esa, birinchidan, bu personajni xalq baxshisi sifatida ko'rsatishga imkoniyat yaratadi. Ikkinchidan, bu hol sahna vaqtini ancha-muncha cho'zadi va gubernator ketgach, biroz cho'ziq melodik musiqa beradi, bundan so'ng keyingi fojia yaqqolroq ifodalanishi mumkin.”³

M.Ashrafiy va S.Vasilenko opera ustida 1938-yil 1-oktabrida ish boshlagan edilar, 1939-yil 25-martga kelib asarning klaviri ham, partiturasini ham tayyor bo'lgan edi. Ishning bunchalik tez borishiga keyinchalik M.Ashrafiy bilan bir necha bor hamkorlik qilgan yosh dramaturg Komil Yashinning muvaffaqiyatli librettosi ham katta yordam berdi.

“Bo‘ron” operasi asosiga 1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘oloni qo‘yilgan edi. Operani sahnalashtirish ustida tezkorlik bilan, lekin puxta ish olib borildi. Premyeradan ancha oldin postanovkachi gruppasi (rejissorlar E.Yungvald-Xilkevich, S.Muhamedov va R.Bobojonov, rassomlar M.Gvozdikov va M.Musayev) voqealar yuz bergan joy bilan tanishish maqsadida Jizzaxga keladi. Kollektiv uchun 1916-yil qo‘zg‘oloni haqida leksiyalar turkumi o‘qildi. 1-aprelda solistlar konsertmeyterlar va dirijyor bilan ishlay boshladilar. 3-mayda sahnada repetitsiyalar boshlanib ketdi. Opera premyerasi esa 11-iyunga mo‘ljallangan edi.

“Artistlar operadagi ariyalar va murakkab ansambllarni qanday qiziqish bilan yodlaganliklari xotiramda qolgan, – hikoya qiladi Norgul partiyasini ijro etgan SSSR xalq artisti Halima Nosirova. – Bo‘ron rolini Karim Zokirov, bosh qahramon Norgul partiyasini men bilan birgalikda Shahodat Rahimova, Sora Samandarova va Nazira Ahmedovalar tayyorlashdi. Hali o‘zbek vokal maktabi shakllanmagan davr edi. Men va sahnadosh dugonalarim o‘z san’atimizni takomillashtirish ustida qunt bilan ishladik, ashula aytishning yevropacha maktabi qonunlarini o‘rgandik. Premyerada g‘oyat katta muvaffaqiyatga erishdik. “Bo‘ron” postanovkasi nafaqat ashulachi-aktyorlar uchun, balki tomoshabinlar uchun ham maktab bo‘lib qoldi. Agar ashulachilar milliy operada ashula aytishni o‘rgangan bo‘lsalar, tomoshabinlar esa uni tinglashni o‘rgandilar.”⁴ Spektakl 40 kun mobaynida zo‘r muvaffaqiyat bilan qo‘yilganligi fakti ham operadagi qiziqish katta bo‘lganidan dalolat beradi.

O‘sha yillardagi sharhlar voqeaning nafaqat tarixiy hodisa sifatidagi ahamiyatini, balki uning san’at hodisasi sifatidagi qiymatini ham doimo ta’kidlaydi. “... “Bo‘ron” – o‘zbek musiqa va teatr san’ati tarixidagi muhim bosqich, buyuk yutuq. Muxtor Ashrafiy S.N.Vasilenko bilan hamkorlikda birinchi o‘zbek operasini yaratishga muvaffaq bo‘lganligi, uni ishonch bilan boshqarayotgani, teatr jamoasi Bo‘ron operasi oldiga qo‘ygan eng murakkab ijro vazifalarini a’lo darajada bajarayotgani – bularning barchasi haqiqiy g‘alabalardir. Ammo gap, albatta,

³ Василенко С. Н. Творческое содружество. // «Совесткое искусство» gazetasi, 1939-yil 4-iyul.

⁴ Каримов Б. Главная сцена республики. // «Комсомолец Узбекистана» gazetasi, 1983-yil 28-iyun.
www.innovativepublication.uz



nafaqat yengib o‘tgan qiyinchiliklarda, balki “Bo‘ron”ning haqiqiy badiiy qadriyatlarga ega ekanligidir”,⁵ – deb yozadi “San‘at” gazetasi.

1939-yilning yozida respublikamizning uch mingdan ortiq san‘at xodimlari Farg‘onaga jo‘nab ketishdi va u yerda Buyuk Farg‘ona kanali qurilishi boshlandi. Bu yerda 160 ming quruvchilar armiyasi oldida o‘zbek xalqi badiiy ijodining eng yaxshi namoyandalari konsert berdi. O‘zbek opera va balet teatri jamoasi ham qurilish maydoniga jo‘nab ketdi. O‘zbekiston san‘atining ajoyib yutug‘i – birinchi o‘zbek operasini namoyish etishga qaror qilindi. “Kanal quruvchilar namoyish uchun sahnani o‘zlari dashtda qurdilar. Kanal qurilishining barcha uchastkalarida operani namoyish etish uchun “Bo‘ron” spektakli dekoratsiyasi ko‘p kilometrlarga olib borildi. “O‘shanda san‘atkorlar va kanal quruvchilari yagona ijodiy organizmni ifodalagan va bu opera spektakliga o‘zgacha zavq bag‘ishlagan”,⁶ – deb eslaydi oradan uzoq yillar o‘tib O‘zbekiston xalq artisti G.S.Izraelyan. Qurilish ishtirokchilarining e’tirofi va minnatdorchiligi opera ijodkorlari uchun eng yaxshi mukofot bo‘ldi.

1979-yili, “Bo‘ron” operasi yaratilganidan keyin 40 yil o‘tgach, avvalgi Navoiy nomli davlat akademik Katta teatrida u qaytadan sahnaga chiqdi. Teatr musiqa rahbari va dirijyori D.Abdurahmonova, rejissor F.Safarov va rassom G.Brim postanovkaasida spektakl yangicha va zamonaviy yangradi. Bunga ko‘p jihatdan spektaklning yangicha maromi – pardalar soni qisqartirilgani, jo‘shqinlik, harakatlarga boylik, real hayotga yaqinlashtirilgan xarakterlarning yangicha hislatlari imkon berdi. Spektakllarda O‘zbekistonda vokal maktabining uch avlodiga mansub san‘atkorlar ishtirok etishdi. Ular orasida o‘zbek opera sahnasining yetuk namoyondalari (H.Nosirova, M.Dovidov, J.Nizomxo‘jayev), o‘rta avlod namoyondalari (S.Qobulova, A.Azimov, S.Benjaminov) va yosh avlod vakillari (P.Mustafoev, T.Husanov, Q.Muhiddinov) bor edi.

“Bo‘ron” operasi Berlinda o‘tkazilgan Xalqaro XXVI teatr va musiqa festivalida katta muvaffaqiyat bilan qo‘yildi. Ayniqsa, Bo‘ron partiyasini ijro etgan Tursunboy Husanov tinglovchilarning qizg‘in olqishlariga sazovor bo‘ldi.

Bugungi kunda “Bo‘ron” operasi o‘zbek professional musiqa san‘atining tamal toshi sifatida baholanadi. Mazkur opera orqali milliy kompozitorlik maktabi, professional vokal ijrochiligi va opera rejissurasi shakllandi. Eng muhimi, ushbu asar o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, ozodlik uchun kurash ruhi va milliy san‘at tafakkurining yorqin timsoliga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Butunrossiya teatr jamiyatida S. N. Vasilenko va M. Ashrafiyning “Bo‘ron” va “Sirdaryo” operalari muhokamasi stenogrammasi. 1940-yil 26-may, 16-bet. // Muxtor Ashrafiy muzeyi, KP. 7503. INV. 666.

⁵ Рабинович Д. Буран. // «Совесткое искусство» gazetasi, 1939-yil 4-iyul.

⁶ “Do‘st haqida so‘z”. G.S.Izraelyanning Muxtor Ashrafiy haqidagi xotiralari. // Muxtor Ashrafiy muzeyi. KP. 8897. INV. 4823.
www.innovativepublication.uz



2. Чулаки М. И. Воспоминания о М. Ашрафи. // Мухтор Ashrafiy muzeyi, КР. 8878. INV. 4820.
3. Василенко С. Н. Творческое содружество. // «Совесткое искусство» gazetasi, 1939-yil 4-iyul.
4. Каримов Б. Главная сцена республики. // «Комсомолец Узбекистана» gazetasi, 1983-yil 28-iyun.
5. Рабинович Д. Буран. // «Совесткое искусство» gazetasi, 1939-yil 4-iyul.
6. “Do‘st haqida so‘z”. G.S.Izraelyanning Muxtor Ashrafiy haqidagi xotiralari. // Мухтор Ashrafiy muzeyi. КР. 8897. INV. 4823.